

Akramjonova Gulandom Ibrohimjon qizi

ADPI magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz tilshunoslik fanining boshqa gumanitar fanlar bilan bo'ladigan aloqasini o'rghanamiz. Maqola ham tilshunoslik haqida, ham boshqa gumanitar fanlar haqida birdek ma'lumot bera oladi. Tilshunoslikning boshqa fanlar orqali qanday anglashilishi, qanday tushunilishi ushbu maqola vositasida ochib beriladi va tilshunoslikning imkoniyatlari namoyon etiladi. Maqola tilshunoslik sohasidagi yangiliklar, rivojlanishlar, zamonaviy yo'nalishlar haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika, didaktika, psixolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika, kommunikativ lingvistika, toponim, etnonim, matn tilshunosligi.*

Davrlar o'tishi bilan hamma sohada o'zgarish bo'lganidek, ilm – fan sohasida ham qator yangiliklar ro'y bermoqda. Bu yangiliklar tilshunoslik fanini ham cheklab o'tmagan. Tilshunoslik fani ham qadim zamonlardan , ancha asrlar avvaldan paydo bo'lgan, asrlar davomida rivojlangan va bugungi kunda ham yana yangidan yangi tarmoqlari ochilib rivojlanib bormoqda. Tilshunoslik fani rivojlanib borish barobarida uning tarkibida yana yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bunday yangi paydo bo'lgan ya'ni zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlariga sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, kommunikativ lingvistika, kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika kabi yangi bo'limlarni kiritish mumkin.

Zamonaviy yo'nalishlarga qiziqishning kuchyib borayotganini quyidagi sabablar bilan izohlashimiz mumkin:

1.Hozirgi jamiyatda ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

2.Tilshunoslik shu vaqtga qadar faqat tilning ichki tuzilishini o'rganish bilan qiziqib keldi, tilning jamiyat bilan , o'sha til egasi bo'lgan xalq tarixi, urf – odati bilan munosabati muammosi tilshunoslar etiboridan chetda qolib keldi.

3.Zamon o'zgargan sayin tilshunoslik fanining ham zamonaviy jihatlarini kashf qilishga ehtiyoj kuchayib bordi.

Tilshunoslikning sotsiologiya fani bilan munosabati:

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun u jamiyat hayoti bilan uzbek bog'liq va bu tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi sotsiolingvistika yo'nalishining shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa zamonaviy ijtimoiy rivojlanish hamda ilmiy texnika inqilobi tilning sotsiolingvistika va struktur o'rganish muammolarini chuqur tahlil qilishni hayotiy zaruratga aylantirib qo'ydi. Sotsial lingvistika fonologik sistema birliklaridan tortib

butun til strukturasigachabo'lган барча тил ходисаларини ижтимоий шартлашган ходисалар деб қарайды. Барча ижтимоий ходисаларнинг ичидаги тил системаси енг ўпиг'и исобланади. О'зига хос хусусиятларiga va murakkab strukturaga ega.

Sotsiolingvistikанing обьекти тил ниге ижтимоий фолијати исобланади. Тил муайян ижтимоий структурага ега болған жамиятда фолијат ко'рсатади, шунга көра, сotsiolingvistikани тилни ижтимоий контекстда органадиган фан дејиш мүмкін.

Tilshunoslikning etnografiya fani bilan munosabati:

Etnografiya tilshunoslikка qimmatli materiallar beradi. Toponim, etnonimlarni xalqning tarixini bilmay turib o'rganib bo'lmaydi. Til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni o'rganish ehtiyoji tilshunoslikda etnolingvistika yo'nalishini yuzaga keltirdi. Etnolingvistika sohasining pradmeti dastlabki davrlarda tillar tasnifi bolgan bo'lsa, keyinchalik tillarning va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, til taraqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning tasiri кabi muammolar ham etnolingvistikанing o'rganish doirasiga kiritilgan. Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli барча мамлакатларida tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida e'tirof etildi va bu yo'nalish bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tilshunoslik va kognitiv tilshunoslik:

Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va унион обьектив қонуниятларини o'rganish, anglash, idrok qilish, natijalari haqidagi fan bo'lib, u to'plangan ma'lumotlarning muayyan tizimiga aylanganki, bizning ongimizda ma'lum tarzda joylashgan va o'z tabiatiga ko'ra tafkkurning kognitiv jarayonlaridan таркиб topган. Kognitiv tilshunoslikning o'rganish обьекти тил исобланади. Bu fan тилни инсон оңидаги fikrlarni шакллантурувчи va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkil qiluvchi vosita sifatida tadqiq etiladi. Zero til kognitiv tilshunoslikning асосини ташкил qiladi. Kognitiv tilshunoslikning асосиyl мақсади тилни tadqiq qilish orqali bilimlarning har xil tuzilmalariga kirib borish hamda til va ular о'rtasidagi aloqadorlikni izohlash исобланади. Kognitiv tilshunoslikning асосиyl vazifasi тил sistemasini инсонлarning o'rabi turgan muhitini, инсоният tarixi va madaniyatini, urf – одатларини o'rganishda ,anglab олишдаги исхтирокини aniqlash, инсон оңидаги mavjud tajribaga suyanib , to'plangan bilimlarni ma'lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning rolini tadqiq etishdir. O'zbek kognitiv tilshunoslaringin mazmun mundarijasini aniq belgilab олиш , унион boshqa fanlar bialn aloqasi, o'ziga хос tadqiq va tahlil usullarini ishlab chiqish bugungi кунда tilshunoslarning асосиyl vazifalaridan бирি bo'lib qolmoqda.

Tilshunoslikning neyrologiya fani bilan munosabati :

Neyrolingviatika bu psixologiya fanining тармоғи bo'lib , nutqiy фолијатning miyadagi mexanizmlarini o'rganuvchi va miyaga mahalliy shikast yetishida nutqiy jarayonlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganadi. Neyrolingvistikанing фан sifatida shakllanishi bir таррафдан neyropsixologiyaning, boshqa таррафдан esa lingvistika va psixolingvistikанing rivojlanishi bilan bog'liq. Neyrolingvistika инсон томонидан оламни

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

belgilashtirish jarayonini kompleks tarzda o’rganuvchi fan tarmog’i sifatida o’ziga turdosh – psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g’oyalari va metodlaridan foydalanan rivojlanib bormoqda. Ushbu fan miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta’siri masalalarini ya’ni afaziya holatini o’rganadi. Bosh miyaning shikastlanishi nutqimizga o’z ta’sirini ko’rsatmasdan qolmaydi. Bu shikastlanish natijasida nutqimizda turli xil nutqiy kamchiliklar: nutqning yo’qolishi, eshitish qobiliyatining susayishi va idrok qila olmaslik, ya’ni fikr yurita olmaslik kabilar yuzaga keladi. Bu kamchiliklar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, semantik sathlarida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham bu fanni tilshunoslik fani bilan bevosita bog’lash mumkin. Neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o’rganishning bir tarmog’i sifatida rivojlanib bormoqda.

Tilshunoslikning kompyuter bilan munosabati:

Ma’lumki, XXI asr kompyuter texnologiyalari , ilg’or pedagogika va axborot texnologiyalari , yuksak tafakkur, fan va texnikaning jadal taraqqiyot asri bo’ladi. XXI asr boshiga kelib, “Elektron ta’lim”, “Elektron boshqaruv”, “ Ochiq ta’lim”, “Ma’sofaviy ta’lim”, “Axborotlashgan ta’lim” kabi tushunchalar hayotimizga kundan kun singib bormoqda. Hozirgi axborot, kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari asrida , internet kundan kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda kompyuter sohasining tilshunoslikka ham kirib kelishi tabiiy hodisadir. XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o’zgarishlarni o’rganish bilan shug’ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ – pragmatic aspektida olib boriladi. Bu aspekt tilning rivojlanishi, tarqqiyotini kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatları bilan bog’liq holda o’rganishni yetakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik – pragmatic matn tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo’ldi. Kompyuter insonlarga hayotni bir qadar osonlashtirishga yordam bergani singari kompyuter lingvistikasi ham tilshunoslikning o’rganilishiga katta yordam beradi va bir qadar o’rganishni osonlashtiradi. Tilshunoslikdagi masalalarga ham kompyuter lingvistikasi orqali yechim topish anchagina qulay va oson.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik fanini to’la yorishish uchun faqat shu fanning o’zi bilangina cheklanib qolish to’g’ri emas . Bu fanni yanada to’laroq yoritish uchun yondosh fanlarga ham murojat qilish zarur. Tilshunoslik fani faqatgina boshqa fanlarning unga keltirayotgan foydali tomonlari bilangina oziqlanib qolmasdan, o’zi ham boshqa fanlarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Shuni ta’kidlash joizki, tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik munosabatda bo’lmisin, o’z tadqiqot obyekti va tadqiqot chegarasiga ega bo’lgan fan sifatida fanlar sistemasida qat’iy o’ringa ega.

ADABIYOTLAR:

1. O.Yusupova. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2021
2. M.Mirtojiyeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2004
3. M.Mirtojiyev. N.Mahmudov. Til va madaniyat. T. 1992
4. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. T. 2006
5. R.Majidova. Tilshunoslikning gumanitar fanlar bilan aloqasi.